

KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH DOLZARB MUOMMO SIFATIDA

*Sanayeva Go'zal Orziyevna**Qarshi tumani 18- maktab psixologi.*

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta'lim jarayonida o'quvchi yoshlarni kasbga yo'naltirish, kasb tanlash masalalari, shuningdek, o'quvchilarni kasbga yo'naltirishda yosh bosqichlarini inobatga olish xususiyatlari bayon qilingan.

Kalit so'zlar: ta'lim jarayoni, kasbga yo'naltirish, kasbiy targ'ibot, extiyoj, kasb tanlash.

Ijtimoiy taraqqiyotni ro'yobga chiqarish uchun mamlakatda yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash va ularni jahon standartlari darajasiga ko'tarmoq lozim, fan va texnikaning bugungi kun taraqqiyotiga javob berish uchun keng saviyali, bilimdon, o'z kasbining fidoiy kishisini kamol toptirish orqali davlatimizda bozor iqtisodiyotiga bardosh beradigan, raqobatbardosh mahsulotlar yaratuvchi kasb egalarini shakllantirish joiz. Toki ular davr talablariga og'ishmay javob beradigan, qiziqishi keng, malakasi mustahkam, xotirasi barqaror, fikr yuritishi puxta, izlanuvchan, mehnatsevar, vatatsharvar, iymon-e'tiqodli insonlar bo'lib voyaga etishadi. Buning uchun uzluksiz ta'lim tizimining barcha jabhalarida o'quvchilarni kasbga yo'naltirishning ahamiyati kattadir. O'quvchilarni kasbga yo'naltirishda faoliyat masalasi muhim masala xisoblanadi. Jonli mavjudotni muayyan tarzda va muayyan yo'nalishda xarakter qilishga undaydigan extiyojlar shaxsning faolligi manbai bo'lib xisoblanadi. Extiyoj – jonli mavjudotning xayot kechirishning konkret shart-sharoitlariga uning qaramligini ifoda etuvchi va bu shart-sharoitlarga nisbatan uning faolligini vujudga keltiruvchi xolatidir. Kishining faolligi extiyojlarning qondirilishi jarayonida namoyon bo'ladi. Kishining extiyoji uni tarbiyalash jarayonida shakllanadi. Demak, kishining o'z extiyojlarini qondirish jarayoni ijtimoiy taraqqiyot bilan belgilanadigan faoliyat shakli egallashning faol, muayyan maksadga yo'naltirilgan jarayon sifatida aloxida ajralib turadi.

Mustaqil O'zbekistonda o'quvchilarni tarbiyasiga nisbatan qo'yayotgan eng muxim talablardan biri ularda mexnat qilish extiyojini tarbiyalashdan iboratdir. Mexnat qilishga bo'lgan extiyojning yanada rivojlanishi ishlab chiqarishni rivojlantirish, ko'pgina ishlab chiqarish jarayonlarini maksimal darajada avtomatlashtirish, mexnat sharoitlarini yaxshilash, ish vaqtini qisqartirish natijasida, faqat ijtimoiy foydali mexnatdagina o'zini namoyon eta oladigan bunyodkorlik kuchlarini jonlantirish oqibatida yuz beradi. Umumiy ta'lim maktabini isloh qilishning asosiy yo'nalishlarida o'quvchilarning mexnat tarbiyasi va kasbga yo'naltirilishi qanday rol o'ynashiga aloxida e'tibor berilgan. Extiyojlar kelib chiqishiga ko'ra tabiiy

va madaniy bo`lishi mumkin. Tabiiy extiyohlarda kishining faollik kasb etayotgan faoliyati, uning xayoti va uning avlodi xayotini saklash uchun zarur bo`lgan shart-sharoitlarga bo`ysunganlik ifodalanadi. Madaniy extiyohlarda odamning faol faoliyati insoniyat madaniyatining maxsuliga bog`liq ekanligi ifodalanadi; uning ildizlari butunlay kishilik tarixining sarxadlariga borib taqaladi. Ma`naviy jixatdan o`rinli bo`lgan extiyoj odam yashayotgan jamiyatning talablariga javob beradigan, ana shu jamiyatda qabul qilingan didlar, baxolar va dunyoqarashga mos keladigan extiyojlardir. Extiyojlar o`z predmetining xarakteriga ko`ra moddiy va ma`naviy bo`lishi mumkin. Moddiy extiyohlarda kishining moddiy madaniyat predmetlariga qaramligi (ovqatlanishiga, kiyinishiga, uy-joyga, maishiy turmush ashyolariga va boshqa narsalarga extiyoj sezish) ma`naviy extiyohlarda esa ijtimoiy ong maxsuliga tobelligi ifodalanadi. Ma`naviy extiyojlar ma`naviy madaniyatni yaratish va o`zgartirishda o`z aksini topadi. O`quvchi o`z fikr-muloxazalari va tuyg`ularini boshqalar bilan baxam ko`rishga gazetalar, kitoblar va jurnallar o`qishga kinofilmlar va spektakllar ko`rishga, muzika tinglashga va shu kabilarga extiyoj sezadi. Ma`naviy extiyojlar moddiy extiyojlar bilan uzviy bog`liqdir. Ma`naviy extiyojlarni qondirish uchun, moddiy extiyojlar predmeti xisoblanmish moddiy narsalar (kitoblar, gazetalar, yozuv va nota qog`ozlari, buyoqlar va shu kabilar) talab qilinishi shubxasiz. Shu tariqa, kelib chiqishiga ko`ra, tabiiy, shu bilan birga predmetiga ko`ra moddiy, kelib chiqishiga ko`ra madaniy xisoblangan extiyoj yo moddiy bo`lishi, yo predmetiga ko`ra maonaviy bo`lishi mumkin. Agar xayvonlarning xatti-xarakati butunlay atrof muxit bilan belgilansa, kishining faolligi uning ilk yoshligidanoq butun insoniyat tajribasi va jamiyat talablariga ko`ra yo`naltirilib boriladi. Xatti-xarakatning bu turi shu qadar o`ziga xoslikka egaki, o`quvchilarni kasbga yo`naltirish psixologiyasida uning atash uchun maxsus termin – kasb faoliyati termini qo`llaniladi.

Inson kasb faolligida «xarakat», «faoliyat», «xulq» tushunchalari bilan chambarchas bog`liq. SHaxs aynan turli kasb faolliklar doirasida shakllanadi, o`zligini namoyon qiladi xam. Demak, kasb faolligi yoki inson kasb faoliyati passiv jarayon bo`lmay, u ongli ravishda boshqariladigan faol jarayondir. Inson kasb faolligini mujassamlashtiruvchi xarakatlar jarayoni kasb faoliyati deb yuritiladi. Ya`ni, kasb faoliyati – inson ongi va tafakkuri bilan boshqariladigan, undagi turlituman extiyojlardan kelib chiqadigan, xamda tashqi olamni va o`z-o`zini o`zgartirish va takomillashtirishga qaratilgan uziga xos faollik shaklidir. Bu – moddiy ne`matlar yaratishga qaratilgan mexnat faoliyati, bu – yangi kashfiyotlar ochishga qaratilgan ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati va shunga o`xshash. Xar qanday kasb faoliyati real shart-sharoitlarda, turli usullarda va turlicha ko`rinishlarda namoyon bo`ladi. Qilinayotgan xar bir xarakat ma`lum narsaga – predmetga qartilgani uchun xam, faoliyat predmetli xarakatlar majmui sifatida tasavvur qilinadi. Masalan, ma`ruzani konspekt qilayotgan talabaning predmetli xarakati yozuvga qaratilgan bo`lib, u avvalo o`sha daftardagi

yoʻzuvlar soni va sifatida oʻzgarishlar qilish orqali bilimlar zaxirasini boyitayotgan boʻladi. Kasb faoliyatining va uni tashkil etuvchi predmetli xarakatlarni aynan nimalarga yoʻnaltirilganligiga qarab, avvalo tashki va ichki kasb faoliyati farqlanadi. Tashki kasbiy faoliyat shaxsni oʻrab turgan tashqi muxit va undagi narsa va xodisalarni oʻzgartirishga qaratilgan faoliyat boʻlsa, ichki kasbiy faoliyat birinchi navbatda aqliy faoliyat boʻlib, u sof kasbiy psixologik jarayonlarning kechishidan kelib chiqadi. Kelib chiqishi nuqtai nazaridan ichki-aqliy, psixik kasbiy faoliyat tashki predmetli faoliyatdan kelib chiqadi. Dastlab predmetli tashki faoliyat roʻy beradi, tajriba orttirib borilgan sari, asta-sekin bu xarakatlar ichki aqliy jarayonlarga aylanib boradi. Xar qanday sharoitda xam barcha xarakatlar xam ichki psixologik, xam tashqi-muvofiqlik nuqtai nazaridan ong tomonidan boshqarilib boradi. Xar qanday faoliyat tarkibida xam aqliy, xam jismoniy-motor xarakatlar mujassam boʻladi. Agar oʻylayotgan odamni ziyraklik bilan kuzatsangiz, undagi etakchi kasbiy faoliyat aqliy boʻlgani bilan uning peshonalari, koʻzlari, xattoki, qoʻl xarakatlari juda muxim va jiddiy fikr xususida bir toʻxtamga kelolmayotganligidan, yoki yangi fikrni topib undan mamnuniyat xis qilayotganligidan darak beradi. Kasb tanlash faoliyatini oqilona tashkil etish uchun mamlakatimiz qaysi soxa mutaxassislariga muxtojligini nazarda tutish va shunga yarasha maktab oʻquvchilarini ularning mayli, intilishi, qiliqishi, imkoniyati, aqliy va jismoniy qobiliyatlariga qarab, hamda u yoki bu kasbga yaroqliligini aniqlab, soʻngra kasbga yoʻllash kerak. Kasbga yoʻnaltirish - bu ilmiy asoslangan va oʻzini kasbini jamiyat ehtiyojlari sifatida, shuningdek, oʻzini qiziqish va qobiliyatlarini xisobga olib, turgʻun kasb tanlash uchun xayotga kirayotgan yoshlarga yordam beradigan psixolog-pedagog, tibbiyot va davlat tadbirlari tizimidir

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Карандашев В.Н. Психология введение в профессию.
2. 2- е изд - М.: СМЫСЛ, 2003. - 19 с. 2. Nabijonova D. Oʻquvchilarni kasbga yoʻnaltirish psixologiyasi. Toshkent: 2002. - 38 b
3. 3. Xaydarov F.I., Xaliliova N.I. “Umumiy psixologiya”. - Toshkent: Mumtoz soʻz, 2010. – 97 b
4. 4. Gʻoziev E.Gʻ. Ontogenez psixologiyasi - Toshkent: Noshir , 2010.
5. A.Avloniy “Turkiy guliston yohud axloq” Toshkent. 2002.
6. Poʻlatov, Sh.N., Rabindranat Tagorning Hindiston ilm-maʼrifatga qoʻshgan xissasi.// “SCIENCE AND EDUCATION” Scientific journal Volume 1, Special issue 2020 136-144 P.